

“O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatining
2025-yil 5-avgustdagi 13 i/ch-sonli xdfu buyrug‘iga
1-ilova

“TASDIQLAYMAN”
“O‘zagrolizing” AJ
Boshqaruv raisi o‘rinbosari



“O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil II yarim yillik uchun mo‘ljallangan
ISH REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
I. Ustuvor vazifa - Jamiyatning 2025-yil II yarim yillikda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari.			
1.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-16-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashkil etish hamda vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
1.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yilning 20-dekabrda PF-223-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashkil etish.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.3	- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida joriy yil 16-iyun kuni o'tkazilgan yig'ilishda islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahliliga qaratilgan muhim tashabbuslari ijrosini ta'minlash.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
1.4	O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda kengaytirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritalari" da nazarda tutilgan tadbirlarning o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
1.5	Qonunchilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, va Farmoyishlari hamda Davlat rahbari raisligida o'tkazilgan, shuningdek, Respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan yig'ilish bayonlarida bajarilishi lozim bo'lgan tegishli nazorat bandlarini so'zsiz va sifatli bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
II. Ustuvor vazifa - Jamiyatning Boshqaruv vertikalida bo'g'inlar qamrab olingan 2025-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalari.			
2.1	2025-yil II yarim yillikda 450 mlrd. so'm lizing to'lovlari undirilishini ta'minlash. Shundan: - 200,0 mlrd. so'm paxta imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan; - 200,0 mlrd. so'm g'alla imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan; - 50,0 mlrd. so'm erkin mablag'lar hisobidan undirish.	II yarim yillikda	E.Qurbonov, B.Ganiyev hududiy filiallar rahbarlari
2.2	Joriy yil paxta terimi mavsumiga yetkazib berilishi rejalashtirilgan paxta terish mashinalarini yakuniy to'lovlarini moliyalashtirish maqsadida Jahon banki tomonidan 130 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag'larini jalb qilish va o'rnatilgan tartibda o'zlashtirish.	II yarim yillikda	E.Qurbonov, B.Ganiyev, Sh.Qodirova, N.Meliboyev

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
2.3	Lizing loyihalarini moliyalashtirishga, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICA bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikalarini xarid qilish maqsadida, 22 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag'ini jalb qilish va o'rnatilgan tartibda o'zlashtirish.	II yarim yillikda	E.Qurbonov, B.Ganiyev, Sh.Qodirova, N.Meliboyev
2.4	Respublika qishloq xo'jaligiga 1 072 dona turli rusumdagi qishloq xo'jaligi texnika va agregatlarni lizing asosida yetkazib berish. Shundan: - 47 dona traktorlar; - 54 dona lazerli yer tekislagichlar; - 291 dona paxta terish mashinalari; - 150 dona traktor tirkamalari; - 205 dona purkagichlar; - 119 dona mineral o'g'it sepkichlar; - 206 dona boshqa texnikalar.	II yarim yillikda	N.Meliboyev, E.Qurbonov, Sh.Qodirova, E.Allamov, hududiy filiallar rahbarlari
2.6	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 28-noyabr kuni meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan 51-sonli topshiriqlar 7.4-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Sayxunobod tajribasi asosida joylarda tushuntirish ishlarini olib borish va mahallardagi talabgorlarga imtiyozli shartlar asosida mini texnikalarni yetkazib berish choralari ko'rish.	II yarim yillikda	N.Meliboyev, A.Ismailov, E.Qurbonov, E.Allamov, hududiy filiallar rahbarlari
2.7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yil paxta hosili xomashyosini mashinalarda terib olishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 19-fevraldagi PQ-67-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida paxta terish mashinalarini yetkazib berish choralari ko'rish.	II yarim yillikda	N.Meliboyev, E.Qurbonov, Sh.Qodirova, E.Allamov, hududiy filiallar rahbarlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
2.8	Lizingga yetkazib berilgan hamda yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlarining barchasini joriy yil II yarim yillikda monitoring ko'rigidan o'tkazish.	II yarim yillikda	N.Meliboyev, I.Odiljonov, hududiy filiallar rahbarlari
2.9	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 7-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan 48-sonli topshiriqlar 12.v-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida lazerli yer tekislagichlarni yetkazib berish choralari ko'rish.	II yarim yillikda	N.Meliboyev, E.Qurbonov, hududiy filiallar rahbarlari
2.10	Lizing xizmatlarini ko'rsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida, Jamiyat tomonidan lizingga yetkazib berilgan hamda yetkazib berilayotgan, shu jumladan joriy yilda yetkazib beriladigan paxta terish mashinalari , o'ziyurar qishloq xo'jaligi texnikalarning doimiy soz holatda ishlashini nazorat qilish, to'lov intizomini mustahkamlash va ularning onlayn monitoringini olib borish maqsadida "GPS" qurilmalari bilan jihozlash.	II yarim yillikda	I.Odiljonov, T.Eshonkulov, hududiy filiallar rahbarlari
2.11	Lizing obyektlarini lizingga berish jarayonlarini raqamlashtirish axborot tizimini sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish.	II yarim yillikda	T.Eshonkulov, Boshqarma va bo'lim boshliqlari
2.12	Jamiyat Boshqaruv raisi va o'rinbosarining 2025-yil uchun mo'ljallangan faoliyatining eng muhim maqsadli samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash choralari ko'rish.	II yarim yillikda	Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
2.13	Lizing to'lovlaridan hosil bo'lgan qarzdorliklarni hududiy viloyat filiallar tomonidan sud mexanizmi orqali undirilish (<i>talabnomalar yuborish, iqtisodiy sudlarga da'vo arizalar kiritish, sud qarorlari asosida olingan ijro varaqalarni majburiy ijro organlariga taqdim etish</i>)ni ta'minlash va qarzdorlikni undirish choralari ko'rish.	II yarim yillikda	E.Allamov, Sh.Xasanov, hududiy filiallar rahbarlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
2.14	Hududiy filiallarda lizing to'lovlaridan vujudga kelgan debitor qarzdorliklarni undirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni joyiga chiqqan holda o'rganish.	II yarim yillikda	E.Allamov, Sh.Xasanov, S.Jumagulov
2.15	Xodimlar ish sharoitlarini yaxshilash hamda ularga qulayliklar yaratish maqsadida, markaziy apparat va hududiy filiallarida mavjud eskirgan ish anjom jihozlari bosqichma-bosqich yangilariga almashtirish hamda kompyuter va orgtexnika jihozlari bilan ta'minlash.	II yarim yillikda	X.Xamdamov, Sh.Qodirova, T.Eshonqulov, hududiy filiallar rahbarlari
III. Ustuvor vazifa – Jamiyat faoliyati yuzasidan ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash.			
3.1	Jamiyat faoliyati yuzasidan hamda agrar sohani lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida matbuot anjumani yoki brifing o'tkazish.	II yarim yillikda	S.Mirzayeva, Boshqarma va bo'lim boshliqlari
3.2	Agrar sohadagi faol yosh tadbirkorlar va fermerlar bilan press-tur tashkil etish hamda OAVda namoyish qilinishini tashkillashtirish.	II yarim yillikda	S.Mirzayeva, Boshqarma va bo'lim boshliqlari
3.2	Fermer xo'jaliklari hamda agroklastlar vakillari bilan bevosita muloqotda bo'lish, lizing asosida foydalanayotgan texnikalarga doir fikr va takliflarini o'rganish, mavjud muammolarni joyida eshitish hamda samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida hududlarda ochiq suhbatlar va uchrashuvlar tashkil etish	II yarim yillikda	S.Mirzayeva, Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
3.3	Qishloq xo'jaligi vakillariga lizing mexanizmi, uning moliyaviy imkoniyatlari, shartlari hamda texnika yetkazib berilgandan so'ng ko'rsatiladigan servis va kafolat xizmatlari to'g'risida batafsil tushuntirish berish maqsadida hududlarda axborot-tushuntirish ishlari va amaliy seminar-treninglar tashkil etish.	II yarim yillikda	S.Mirzayeva, Boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
IV. Ustuvor vazifa - Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish hamda Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish.			
4.1	O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi hamda qatag'on qurbonlari xotirasini yod etish kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy hamda xayriya tadbirlarini o'tkazish.	II yarim yillikda	M.Mirabdullayev, S.Qurbanov, X.Xamdamov,
4.2	21-oktabr - O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida bayram tadbirlarini keng miqyosda o'tkazish. Xodimlarning davlat tilida ish yuritish samaradorligini yanada oshirish hamda fikrlash doirasi, umumiy savodxonligini baholash maqsadida diktant olish.	II yarim yillikda	M.Mirabdullayev, S.Qurbanov, S.Mirzayeva
4.3	8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan "Qomusimni bilmoq istadim" mavzusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, sohaga oid qonun hujjatlari yuzasidan xodimlar bilimini baholash maqsadida test sinovini o'tkazish, yaxshi natija qayd etgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish.	II yarim yillikda	M.Mirabdullayev, S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari
4.4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-dekabrda PQ-421-sonli qarori ijrosini ta'minlash va hamda mehnat jamoasining sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlash va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida jamoaviy sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish.	II yarim yillikda	M.Mirabdullayev, A.Abdukarimov, S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari
4.5	2025/2026-o'quv yilida Jamiyatda kamida 5 yil ish stajiga ega bo'lgan xodimlarni respublika oliy ta'lim muassasalarining masofaviy va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etish.	II yarim yillikda	S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
4.6	Xodimlar bilan ishlash yo'nalishida hududiy filiallar faoliyatini bevosita nazorat qilish va muvofiqlashtirish. Xodimlar bilan ishlash jarayonini hamda mehnat intizomi holatini bevosita o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida hududiy viloyat filiallariga xizmat safariga chiqish.	II yarim yillikda	S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari
4.7	“O‘zagrolizing” AJ, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va hududiy viloyat filiallarining yangi tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	II yarim yillikda	S.Qurbanov, A.Norboyev, E.Allamov
4.8	Rahbar xodimlar va mutaxassislar malakasini oshirish, qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborish va seminar-treninglar uyushtirish orqali ularning kasb mahorati, bilim va ko'nikmalarini oshirib borish.	II yarim yillikda	S.Qurbanov, hududiy filiallar rahbarlari
V. Ustuvor vazifa - O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari hamda Hukumat qarorlari va topshiriqlarning bajarilishini maqsadli o‘rganish.			
5.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablari asosida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar rahbarlari
5.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-117-sonli Farmoni mazmun-mohiyatini xodimlar e’tiboriga yetkazish maqsadida seminar o‘tkazish.	II yarim yillikda	D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
5.3	O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, farmoyishi hamda Hukumat qarorlari, farmoyishlari, shuningdek, ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijro holatini hududiy filiallarida maqsadli o'rganish.	Tasdiqlangan reja jadvaliga asosan	D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov, hududiy filiallar rahbarlari
5.4	Jamiyatda va hududiy viloyat filiallarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnoma asosida, ishlarni tashkil etish hamda ijroni ta'minlash, shuningdek, Jamiyatning boshqarma va bo'limlar tomonidan hujjatlarni yig'majildlar nomenklaturasi asosida idoraviy arxivga topshirishni ta'minlash.	II yarim yillikda	D.Kurbanbayev, Sh.Ravshanov Boshqarma va bo'lim boshliqlari



